



XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI


**2023- YIL
YANVAR-IYUN**

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari ¹⁾

(2022-2023- yillar yanvar-iyun)

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11-maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, **2023- yilning yanvar-iyun** oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **8 980,7** mlrd. so'mga yetdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan (**116,0** %) o'sish sur'ati **109,1** % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

¹⁾ Shu va keyingi o'rinlarda 2022-2023- yillar ko'rsatkichlari har bir keyingi yil metodologiyasiga muvofiq qayta ko'rib chiqilgan



Shahar va tumanlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-iyun)


Shahar va tumanlar	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Buxoro viloyati ¹⁾	8 980,7	100,0	109,1
Olot	285,6	3,2	109,2
Buxoro	439,2	4,9	108,4
Vobkent	544,5	6,1	80,4
G'ijduvon	1 079,8	12,0	108,2
Kogon	295,1	3,3	114,6
Qorako'l	379,4	4,2	107,1
Qorovulbozor	179,6	2,0	114,1
Peshku	470,1	5,2	106,0
Romitan	481,1	5,3	102,3
Jondor	473,5	5,3	102,1
Shofirkon	384,7	4,3	106,5
Buxoro sh.	3 644,7	40,6	117,7
Kogon sh.	323,4	3,6	113,8

¹⁾ shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar narxini aks ettiradi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

(2022-2023- yillar yanvar-iyun)



2023- yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **4 452,3** ming so'mga yetdi. **2022- yilning yanvar-iyun** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **107,3** % ni tashkil etdi.



Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar

(2023- yil yanvar-iyun)

Shahar va tumanlar	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati, % da
Buxoro viloyati	4 452,3	107,3
Olot	2 767,2	107,6
Buxoro	2 502,6	106,6
Vobkent	3 719,3	79,1
G'ijduvon	3 391,4	106,4
Kogon	3 551,2	112,2
Qorako'l	2 231,5	105,8
Qorovulbozor	9 161,6	111,7
Peshku	3 636,0	104,2
Romitan	3 218,4	100,4
Jondor	2 590,2	100,4
Shofirkon	2 080,3	105,0
Buxoro sh.	12 550,7	115,6
Kogon sh.	5 053,5	111,5

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik (2022-2023- yillar yanvar-iyun)

2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra, kichik tadbirkorlik subyektlari umumiy sonining (27 024 birlik) 17 349 birligi xizmatlar sohasiga to'g'ri keldi. Ularning xizmatlar sohasiga oid faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonidagi ulushi 64,2 % ni tashkil etdi. **2023- yilning yanvar-iyun** oylarida kichik tadbirkorlikning hajmi 5 349,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 59,6 % ni, shu jumladan, kichik korxonalar va mikrofirmalar 18,4 % ini tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik (2023- yil yanvar-iyun)

Shahar va tumanlar	Kichik tadbirkorlikning hajmi, mlrd. so'mda	Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi, % da
Buxoro viloyati	5 349,9	59,6
Olot	243,1	85,1
Buxoro	350,5	79,8
Vobkent	308,2	56,6
G'ijduvon	887,2	82,2
Kogon	223,1	75,6
Qorako'l	293,0	77,2
Qorovulbozor	116,8	65,0
Peshku	334,8	71,2
Romitan	342,5	71,2
Jondor	371,2	78,4
Shofirkon	299,3	77,8
Buxoro sh.	1 353,0	37,1
Kogon sh.	227,2	70,2


Xizmatlar sohasining turlari bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlari (2023- yil yanvar-iyun)

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o‘tish munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish Dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo‘lgan bo‘limlar bo‘yicha xizmatlar bilan bog‘liq bo‘lgan qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) Statistik tasniflagichi (MST)ga ko‘ra muvofiqlashtirildi.

	Hajmi, <i>mlrd. so‘mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O‘shish sur‘ati, <i>% da</i>
Xizmatlar – jami	8 980,7	100,0	109,1
<i>shu jumladan:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	361,6	4,0	122,1
Moliyaviy xizmatlar	2 047,2	22,8	138,5
Transport xizmatlari	1 823,1	20,3	106,9
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	1 644,6	18,3	106,5
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	350,4	3,9	103,5
Savdo xizmatlari	2 661,9	29,6	92,9
Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar	169,2	1,9	102,5
Ta‘lim sohasidagi xizmatlar	484,8	5,4	141,7
Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	170,1	1,9	101,3
Ijara xizmatlari	182,3	2,0	97,1
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta‘mirlash bo‘yicha xizmatlar	179,2	2,0	98,8
Shaxsiy xizmatlar	204,6	2,3	103,9
Me‘morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	78,6	0,9	101,6
Boshqa xizmatlar	267,7	3,0	104,3

Moliyaviy xizmatlar

(2022-2023- yillar yanvar-iyun)



▮ Hajmi, mlrd. soʻmda ○ Oʻsish surʻati, % da


2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **2023-** yilning mos davrida moliyaviy xizmatlar hajmi **697,6** mlrd. soʻmga oshib, **2 047,2** mlrd. soʻmga yetdi. Jami xizmatlar hajmida moliyaviy xizmatlarning ulushi **22,8** foizni tashkil etdi. Moliyaviy xizmatlarning oʻsish surʻati **138,5** % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan toʻlovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash boʻyicha xizmatlari uchun toʻlanadigan haq hisobiga koʻra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2023- yil yanvar-iyun)

2023- yilning yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlar tarkibida sugʻurta va nafaqa taʼminoti boʻyicha xizmatlardan tashqari xizmatlarning ulushi **87,9** % ni tashkil etdi.



Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Buxoro shahrining ulushi **64,1** foizni yoki **1 311,6** mlrd. soʻmni tashkil etdi. **2022-** yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan Peshku tumanida yuqori oʻsish surʻati **162,8** % ni tashkil etdi.

Transport xizmatlari (2022-2023- yillar yanvar-iyun)

2023- yilning yanvar-iyun oylarida transport xizmatlari hajmi **1 823,1** mlrd. so'mni tashkil etib, **2022- yilning** mos davriga nisbatan ushbu xizmat turining o'sish sur'ati **106,9** % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **20,3** % ni tashkil etdi.



Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

2023- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, asosiy faoliyat turi tashish va saqlash bilan bog'liq bo'lib, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **2 320** birlikni, yoki ularning umumiy sonining **7,6** % ini tashkil etdi. Ulardan **2 310** birlik (**99,6** %) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

O'zbekiston geografik joylashuvining muhim xususiyati zamonaviy transport kommunikatsiya tizimining mavjudligidir.

2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan Buxoro shahrida transport xizmatlari hajmi **80,7** mlrd. so'mga oshib, hisobot davrida **445,6** mlrd. so'mni tashkil etgan. **2022- yilning yanvar-iyun** oylariga nisbatan mazkur shaharda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **108,5** % ni tashkil etgan.

Qorovulbozor tumanida ushbu ko'rsatkich **45,3** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda mazkur xizmatlarning o'sish sur'ati **107,6** % ni tashkil etdi.




Savdo xizmatlari

(2022-2023- yillar yanvar-iyun)

2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **2023- yilning yanvar-iyun** oylarida savdo xizmatlari hajmi **94,2** mlrd. soʻmga oshib, **2 661,9** mlrd. soʻmni tashkil etdi.

2022- yilning mos davriga nisbatan ushbu xizmat turi boʻyicha oʻsish surʼati **92,9 %** ga yetdi.



Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, yaʼni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlarini uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.



2023- yilning 1- iyul holatiga koʻra xizmatlar sohasida faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida savdo faoliyati bilan band boʻlganlarning ulushi **44,5 %** yoki **9 249** birlik bilan ustunlik qiladi, shundan **99,7** foizi (**9 218** birlik) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.



Savdo xizmatlarining tarkibi

(2023- yil yanvar-iyun)



23,9 %

Ulgurji savdo xizmatlari,
avtomobillar va mototsikllar
savdosidan tashqari
xizmatlar

69,5 %

Avtomobillar va mototsikllar
savdosidan tashqari
chakana savdo bo'yicha
xizmatlar



6,6 %

Avtomobillar va mototsikllar
ulgurji va chakana savdosi,
jumladan, ularni ta'mirlash
xizmatlarini qo'shgan holda
xizmatlar




2023- yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining deyarli to'rttdan uch qismini, ya'ni **69,5 %** ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Buxoro viloyati	2 661,9	100,0	92,9
Olot	106,3	4,0	104,3
Buxoro	161,2	6,1	107,4
Vobkent	275,6	10,3	59,2
G'ijduvon	398,0	14,9	101,4
Kogon	143,4	5,4	123,3
Qorako'l	136,5	5,1	94,7
Qorovulbozor	81,8	3,1	108,5
Peshku	220,2	8,3	94,0
Romitan	148,5	5,6	80,7
Jondor	148,1	5,6	82,5
Shofirkon	145,8	5,5	95,4
Buxoro sh.	597,2	22,4	103,9
Kogon sh.	99,3	3,7	104,5

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

(2022-2023- yillar yanvar-iyun)



2023- yilning yanvar-iyun oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **361,6** mlrd. so'mdan iborat bo'lib, **o'tgan yilning mos davriga** nisbatan o'sish sur'ati **122,1 %** ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

2023- yilning 1- iyul holatiga ko'ra "Axborot va aloqa" faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar soni **334** birlikka yetdi, shundan **317** birligi (umumiy sonining **94,9 %**) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

2022- y. (2023- yil yanvar-iyun, % da) 2023- y.

92,0	Telekommunikatsiya xizmatlari	92,6
4,5	Kompyuterda dasturlashtirish bo'yicha xizmatlar	4,1
1,1	Axborot xizmatlari	1,0
2,4	Boshqa aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	2,3

Shahar va tumanlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2023- yil yanvar-iyun)

Shahar va tumanlar	Hajmi, mlrd. soʻmda	Ulushi, % da	Oʻsish surʼati, % da
Buxoro viloyati ¹⁾	361,6	100,0	122,1
Olot	9,8	2,7	113,1
Buxoro	16,7	4,6	118,9
Vobkent	17,0	4,7	127,9
Gʻijduvon	30,6	8,5	119,4
Kogon	9,4	2,6	120,9
Qorakoʻl	16,1	4,5	119,7
Qorovulbozor	2,3	0,6	122,9
Peshku	13,5	3,7	129,0
Romitan	15,1	4,2	121,2
Jondor	19,7	5,4	120,2
Shofirkon	18,0	5,0	119,0
Buxoro sh.	186,2	51,5	123,3
Kogon sh.	7,2	2,0	119,8

¹⁾ shahar va tumanlar boʻyicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan Vobkent tumanida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **361,6** mlrd. soʻmga oshib, koʻrib chiqilayotgan davrda **186,2** mlrd. soʻmga yetdi. Mazkur xizmatlarning umumiy hajmida ushbu hududning ulushi **51,5 %** ni tashkil etdi.

Qorovulbozor tumanida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **2,3** mlrd. soʻmni tashkil etdi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar (2022-2023- yillar yanvar-iyun)



2023- yil yanvar-iyun oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **484,8** mlrd. so'mga yetdi. **O'tgan yilning mos davriga** nisbatan o'sish sur'ati **141,7** % ni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Buxoro shahrining ulushi **85,9** % ni tashkil etdi.

“**Ta'lim**” **seksiyasi** kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.


Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

Ta'lim sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.



Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2023- yil yanvar-iyun oylaridagi** ulushi **78,1** % ni tashkil etdi. **Ma'lumot uchun:** 2022/2023- o'quv yili boshidagi oliy ta'lim muassasalari soni **23** birlikni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2022-2023- yillar yanvar-iyun)



2023- yil yanvar-iyun oylarida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi **170,1** mlrd. so'mni yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining

1,9 % ini tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

2023- yilning 1- iyul holatiga ko'ra sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasi xizmatlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **787** birlikni tashkil etdi, shundan **708** birlikni kichik tadbirkorlik subyektlari tashkil etdi.


Shahar va tumanlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi

(2023- yil yanvar-iyun, mlrd. so'mda)



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2022-2023- yillar yanvar-iyun)

2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 2023- yilning ushbu oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning hajmi **66,8** mlrd. so'mga oshib, **350,4** mlrd. so'mni tashkil etdi.



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.


Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

2023- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **2 174** birlikni tashkil etgan bo'lsa, ulardan **2 172** birligi (umumiy sonining **99,9** %) kichik tadbirkorlik subyektlaridir.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi
(2023- yil yanvar-iyun)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (2022-2023- yillar yanvar-iyun)



2023- yil yanvar-iyun oylarida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi **169,2** mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi **1,9** % ni tashkil etdi. **2022- yilning yanvar-iyun** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **102,5** % ni tashkil etgan.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Shahar va tumanlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi



¹⁾ shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Me'morchilik sohasidagi xizmatlar (2022-2023- yillar yanvar-iyun)

2023- yilning yanvar-iyun oylarida me'morchilik, muhandislik izlanish-lari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **78,6** mlrd. so'mga yetdi.

Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi esa **0,9** % ni tashkil etdi. **2022- yilning yanvar-iyun** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **101,6** % ni tashkil etdi.



Shahar va tumanlar kesimida me'morchilik sohasidagi xizmatlar hajmi

(2023- yil yanvar-iyun, mlrd. so'mda)

Buxoro viloyati	78,6	Vobkent	0,9
Buxoro sh.	63,0	Peshku	0,8
Jondor	3,4	Qorako'l	0,7
Kogon	3,1	Shofirkon	0,6
Buxoro	2,8	Qorovulbozor	0,5
G'ijduvon	1,5	Kogon sh.	0,3
Romitan	1,0		

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.

Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (2022-2023-yillar yanvar-iyun)

2023- yilning yanvar-iyun oylarida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi **179,2** mlrd. so'm miqdorida qayd etilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **98,8** %ni tashkil etgan.



Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining tarkibi (2023- yil yanvar-iyun)




Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Ijara xizmatlari

(2022-2023- yillar yanvar-iyun)

2022- yilning yanvar-iyuniga nisbatan o'rganiylayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi **10,4 mlrd. so'mga** oshib, **182,3 mlrd. so'mga** yetdi. Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi **2,0 %** ni tashkil etdi.



Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida **2023- yil yanvar-iyun** oylarida avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi **57,8 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi milliy daromadning o'sishiga yordam beradi, aholining munosib hayot sifatini ta'minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi ishchilarning mehnat unumdorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejashga yordam beradi va bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.

